

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YANGI TAHRIRIDA O'ZGARTIRILGAN VA QO'SHILGAN MODDALARGA SHARHI

Abdurahmanova Shahrizoda Ulug'bek qizi

TDYU huzuridagi M.S Vosiqova nomidagi

Akademik litsey 1.1-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririga kiritilgan o'zgarishlarning ayrimlaridan misollar keltirib, sharhlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: dunyoviy, ijtimoiy va huquqiy davlat, Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining hozirgi yangi nashriga qadar 31 yildan buyon 15 marta o'zgartirishlar kiritilgan. Bu safar o'zgarishlar ancha katta bo'ldi va hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'zgartirish bo'yicha referendum o'tkazildi, uning natijalariga ko'ra yangi tahrirlangan hujjat 2023-yil 1-maydan rasman kuchga kirdi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Endi ushbu o'zgarishlarning ayrimlarini keltirib, sharh berib o'tsam:

- Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "*O'zbekiston – suveren demokratik respublika*" jumlasini ***O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat*** jumlasiga o'zgartirildi. Ko'rinib turibdiki, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy atamaları moddaga qo'shilgan. Buning mazmuni shulardan iborat: huquqiy davlatda barcha insonlar qonun oldida teng deb tan olinadi, davlat faoliyat yo'nalishining barcha sohalari qonunga tayanadi, ijtimoiy davlat deyilganda esa, jamiyatning ijtimoiy muhtoj qismiga yordam berish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat, dunyoviy davlat o'z nomidan aytib turibdiki, hech qanday diniy mafkurasi mavjud bo'lmagan ya'ni ateistmi, musulmonmi, xristianmi yoki boshqa diniy e'tiqodda bo'lgan barchaga bir xil muomalada bo'linishini ta'minlanadi va din erkinligi imkoniyatini beradi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 35-moddasida ham keltirilgan). Ushbu atamalar bilan modda yanada to'ldirib mukammallashtirilgan, chunki Konstitutsiyaning 1-moddasida Davlatning ta'rifi aniq ko'rsatilishi zarur.

- 15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning

asosini tashkil etadi. Bunda mamlakatning butun hududida deyilganda, hoh qishloq bo'lsin, hoh poytaxt yoki shahar O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirsan, albatta amal qilinishi tushuniladi. To'g'ridan to'g'ri amal qilishi deganda esa shaxslar nafaqat qonun hujjatlarga tayanib balki, Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda sudga ariza berishlari yoki normalarni qo'llashlari mumkinligini bildiradi, ya'ni Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat vazifasini bajaradi.

- Avvalgi tahrirdagi 18-moddaga ham (hozirgi 19-moddaning 2-qismiga) yangilik kiritildi. **Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.** Ya'ni bu qism imtiyozlar/preferensiyalar faqatgina qonunda belgilangan holda va ijtimoiy adolat, tenglik prinsiplariga to'g'ri kelsagina qo'llanilishini bildiradi, masalan, nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan.

- Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Ushbu moddaga binoan, o'rtada ziddiyatlar paydo bo'lsa, bir tomon mansabdor shaxs bo'lishiga qaramasdan, insonlarni tinglab, tushunishga harakat qilinib, iloji boricha ularning foydasiga qaror qabul qilinishini bildiradi. Huquqning ko'p sohalarida ham, xususan, ma'muriy huquqning "manfaatdor shaxs fikrlarini inobatga olish" prinsipining negizi ham ushbu moddadir.

- Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat:

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Ushbu yangi moddadan maqsad bizga borini berib, bilim o'rgatadigan ustozlarni e'zozlash, hurmat qilish va huquqlarini himoya qilishdir.

- Eski tahrirda "Ommaviy Axborot Vositlari" tog'risida bittagina modda bor edi, lekin yangisida ushbu bobga tegishli 2 ta modda kiritildi va asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi.

- **Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar:**

Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi

Bosh vazir nomzodini endi g'olib partiya emas, prezident taqdim etadi.

Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi.

Ushbu o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi ya'ni Konstitutsiyasining yanada to'liqroq, mukammalroq va aniqroq bo'lishi uchun xizmat qiladi, zero ushbu hujjat boshqa barcha hujjatlarning negizi, asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Internet ma'lumotlari
2. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish&ysclid=m6xp078lpl901445468>

